

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOYIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

**Hasanova Xumora Zoxid qizi**

*O'zbekiston –Finlandiya pedagogika instituti  
Jismoniy madaniyat, sport va maktabgacha ta'lim fakulteti  
xumorahasanova2003@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu annotatsiyada bolaning rivojlanish sohalari, kompetensiyalari bayon qilinadi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish keng ma'noli tushuncha bo'lib uni samarali rivojlantirishda jamiyat, oila, mahalla, ota-ona va pedagoglar birligi juda muhim hisoblanadi. Kompetensiya- bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlarini majmuidir.*

**Kalit so'zlar:** *hamkorlik, kompetentlik, tarbiyachi, metod, bola, oila, ta'lim.*

**Abstract:** *This annotation describes the child's areas of development and competencies. Today, the formation of social competence in children of preschool age is a broad concept, and in its effective development, the unity of society, family, community, parents, and pedagogues is very important. Competence is a set of knowledge, skills, skills, and values of a child.*

**Keywords:** *cooperation, competence, educator, method, child, family, education.*

**Аннотация:** *В этой аннотации описаны области развития и компетенции ребенка. Сегодня формирование социальной компетентности детей дошкольного возраста является широким понятием, и в ее эффективном развитии большое значение имеет единство общества, семьи, сообщества, родителей и педагогов. Компетенция – это совокупность знаний, умений, умений и ценностей ребенка.*

**Ключевые слова:** *сотрудничество, компетентность, педагог, метод, ребенок, семья, образование.*

### KIRISH

Mamlakatimizda maktabgacha yoshdagi bolalarga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Shu boisdan soha bo'yicha ko'plab qaror va farmonlar qabul qilinmoqda, hamda hududlarda ijrosi ta'minlanmoqda. Ushbu huquqiy hujjatlar maktabgacha ta'lim sohasini tubdan isloh qilish va sohani rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, maqsad maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirishdir. Bunga asosan 2019-yil 16-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish to'g'risida" gi O'RQ - 595-sonli qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PQ-4312-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda

“Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartlari to’g’risida” gi VMQ-802-sonli qarorlari kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov shunday deganlar: - “Xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq”.

2020-yil 22-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to’g’risida” gi VMQ 802-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga binoan bolaning rivojlanish sohalari va kompetensiyalari belgilab berildi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI:**

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o‘zida borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan, ahloqiy me‘yor va qadriyatlarni o‘zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, unda “men” obrazini qurish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko‘zda tutadi.

Boshlang‘ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va ahloq subyekti sifatida yaxlit rivojlanishini talab etadi. Ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish faol ish jarayonida yuz beradi. Faollik bolaga hos xususiyatdir. Tarbiya jarayonidagi faollik asosida faoliyatning har xir turlari shakllanadi. Ulardan asosiylari: munosabatda bo‘lish faoliyati, bilish, buyumlar bilan bo‘ladigan faoliyat, o‘yin, oddiy mehnat va o‘quv faoliyatlaridir. Ta’lim-tarbiya orqali amalga oshiriladigan faoliyatlarni maktabgacha yoshdagi bolalar birdaniga o‘zlashtirib olmaydilar, aksincha ularni tarbiyachi rahbarligida sekin-asta egallab boradilar.

Bolaning rivojlanish kompetensiyalari shakllanishida amalga oshiriladigan vazifalarning huquqiy asosi sifatida “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida” gi qonun xizmat qiladi. Bundan tashqari kompetensiya bu nafaqat shaxsning ijtimoiylashuvi balki uning ong ostini ham rivojlanishidir.

Bir nechta “kompetensiya va kompetentlik” bo‘yicha ish olib borgan olimlar M.A.Choshanov, M.Aronov, O.Y.Lebedov, I.A.Zimnaya, A.V.Xutorskiy qarashlariga ko‘ra bu ikkala atamani quydagicha ajrata olishimiz mumkin: Kompetensiya – insonning shaxsiy sifatleri, uzviyligi (bilim, malaka, tajriba, faoliyat usullari) hisoblanib ma’lum bir darajadagi narsa va jarayonlarga nisbatan shaxsning munosabatida sifatli va samarali faoliyat yuritishidir.

Kompetentlik esa inson tomonidan faoliyat turlariga shaxsiy munosabatini bildiruvchi, talablarga javob beruvchi kompetensiyalar yig‘indisidir. Abdulla Avloniy nomidagi o‘qituvchilarni malakasini oshirish instituti olimasi L.T.Xurvaliyeva aynan ushbu soha bo‘yicha ish olib borgan.

#### **ASOSIY QISM:**

Maktabgacha ta’lim bolalarga ta’lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma’naviy –axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta’lim turi (1,3-

modda) hisoblanib bolaning ilk rivojlanish yoshidan to 7 yoshgacha bo'lgan davrgacha uni har tomonlama kamol topishini ta'minlashga qaratilgan ta'lim shaklidir.

Ushbu jarayonda bolalarning rivojlanishi, kompetensiyalarini shakllantirishga e'tibor qaratish bugungi vaqtda globaligicha saqlanib kelmoqda, shu sababli barcha rivojlangan davlatlarda ta'lim va tarbiya eng asosiy o'rinlarda turadi.

Darhaqiqat, maktabgacha yoshdagi bolalarning eng asosiy kompetensiyalaridan biri bu uning ijtimoiy kompetensiyasidir. Ijtimoiy kompetensiya - hayotiy vaziyatlarda, kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tuta olish mahoratidir. Bundan tashqari bolalar atrofdagi insonlarni hurmat qilish va ularni tinglash, so'zlarini hisobga olish ko'nikmalarini o'zida shakllantiradilar.

Guruhlarda samarali ishlash uchun zarur va kerakli xulq-atvor qoidalariga amal qiladilar. Jamiyat, mahalla, oila, ota - ona birgalikda ishlar ekan bolalarda rivojlanish va jamoada o'z o'rnini topishi va ijtimoiylashuv jarayoni qiyin kechmaydi, bu borada eng avvalo ota - onalardan farzandiga befarq bo'lmasligi, ular bilan do'stona munosabatda bo'lishlari so'raladi. Har bir farzand barkamol bo'lishi uchun ularni psixikasi va nimani xohlayotganligini ota - ona va uning tarbiyachisi bilishi juda zarur.

MTT larda bola bilimni shakllantirar ekanmiz unga eng avvalo o'zligini tanitishimiz kerak. Zotan bu yo'l bilan yaxshi natija va marralarni qo'lga kirita olamiz. Chunki o'tmishda o'tgan ajdodlarimizni va ular qilgan buyuk izlanishlar va kashfiyotlarni bizning farzandlarimiz davom ettirajak, zero ular vatan tayanchi va umididir. Ijtimoiy kompetensiyaning tom mazmunida aynan shu qarash va g'oya mavjud, qachonki bola o'zligini anglaydi o'shanda u biron - bir narsaga erisha oladi.

Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari

Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.

O'yin kompetensiyasi – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tuta olish mahorati.

Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish. Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari

Bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarda belgilanadi:

- ☐ jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;
- ☐ ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- ☐ nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;

❑ bilish jarayonining rivojlanishi;

❑ ijodiy rivojlanish;

❑ Bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun maktabgacha ta'lim tashkilotining ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikdagi ishlari ham muhim sanaladi.

Bunda:

❑ ota-onalarning maktabgacha ta'lim tashkiloti borasidagi fikrlarini hisobga olish;

❑ ilk rivojlanish masalalarida ota-onalarga bilim berish;

❑ ota-onalarni o'quv-tarbiyaviy jarayonda faol qatnashishga jalb etish;

❑ ota-onalarning tashkilot hayotida ishtirok etish borasidagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad mazmun bo'lishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlik borasida avvalo erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarini tahlil qilib, bolaning ijobiy tomonlarini ko'rsatib, keyin asta-sekinlik bilan ularning xulq-atvoridagi salbiy holatlarni bartaraf etishga, tevarakatrofga qiziqishlarini oshirib borishga astoydil harakat qilish lozimligini uqtirish lozim. Xo'sh, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning tayyorgarligi qanday bo'lishi kerak? degan muhim savol yuzaga keladi.

XULOSA: Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki har bir bolani yosh ko'ratgichlariga mos bo'lgan tarzda ular bilan muloqot qilish va ularni xohish va istaklarini inobatga olish kattalarning zimmasida . Bolalarni to'g'ri tarbiyalash davlatimizning eng katta va mashaqatli kasblaridan biridir . Bolalar atrofidagi insonlardan va o'z ota – onasidan o'rnak oladi. Shu sababli eng avvalo oila muhiti yaxshilashimiz zarur , masalan oilada xaftasiga bir kunni kitoblarga ajratishimiz yoki bolalar bilan birgalikda ular istagan o'yin yoki mashg'ulotlarni bajarishimiz joizdir zero shu bilan bolani ongida hayotga bo'lgan qiziqishini yanada orttira olamiz . Har bir oilada sog'lom muhitni ota - ona bilan balki mahalla bilan birgalikda yaratsak bola shu muhitda o'sib ulg'aysa ertangi kelajagi ham xuddi shunday so'lom hayotda kichadi. Buning sababi shuki bola boshidan qanday muhitda o'ssa o'sha muhitdan energiya oladi va unga o'xshashga harakat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLARI:**

1. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni. 2019-yil 16 dekabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi VMQ 802-qarori. 2020-yil 22-dekabr.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 20-martda "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus.
4. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch" T.; "Yangi Yo'l Poligraph Service", 2015.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ 4312-sonli qarori.
6. "ILK QADAM" davlat dasturi yangi tahriri.
7. " Ijtimoiy pedagogika " ( 2015 ) o'quv uslubiy qo'llanma 24 bet.
8. "Bolangiz maktabga tayyormi?" O'z. Res. Xalq ta'limi vazirligi Respublika ta'lim markazi, Ma'rifat-Madadkor nashriyoti.
9. [https : // lex.uz](https://lex.uz).
10. [http: // www. ziyouz.com](http://www.ziyouz.com).
11. [https:// president.uz](https://president.uz).